

Koreyada istiqomat qiluvchi chet elliklar uchun COVID-19 ga qarshi emlash haqida ma'lumot

Chet ellik fuqorolari uchun oldindan bron qilish tartibi, Koreya fuqorolari kabi bir xil tartibda amalga oshiriladi. Quydagi ma'lumotlar bilan tanishib chiqib COVID-19 ga qarshi emlashga buyurtmabering.

Emlanuvchilar va bron qilish usuli

◦ Ro'yxatdan o'tgan chet ellik fuqorolar

- "Har bir nomzod uchun avgust-sentyabr oylari emlash rejasи" ga muvofiq emlash uchun buyurtma berilishi mumkin. Buyurtmalar onlayn yoki telefon orqali amalga oshirilishi mumkin.

* Agar siz onlayn bron qilish huquqiga ega bo'lmasangiz, mahalliy sog'liqni saqlash markaziga tashrif buyurib, ro'yxatdan o'tib buyurtma berishingiz mumkin.

- Buyurtma berish tartibi -

- **(Onlayn – shaxsan o'zingiz yoki vakilingiz)** Corona 19 vaktsinasini oldindan bron qilish tizimi (<http://ncvr2.kdca.go.kr>) ga kirib buyurtma bering. Vakilingiz onlayn buyurtma berish mumkin
- **(Telefon – shaxsan o'zingiz yoki vakilingiz)** Koreya Kasallikkarni nazorat qilish va profilaktika markazlarida (1339) yoki COVID-19 ga qarshi emlash uchun oldindan buyurtma berish tizim (ncvr.kdca.go.kr) ga kirib (Emlash holati (ustiga sichqonchani qoyib) → COVID-19 ga qarshi emlash, "telefon orqali bron qilish murojaat raqamlar" ni bosing). Har bir mahalliy hukumat uchun buyurtmalar bo'yicha maslahat raqamini tekshiring

◦ Chet elliklar ro'yxatga olish raqami (ID kartasi) bo'limgan chet ellik fuqorolar (shu jumladan noqonuniy istiqomat qiluvchi shaxslar)

- Pasportizga vaqtinchalik raqamini olish va oldindan bron qilish uchun sog'liqni saqlash markaziga tashrif buyuring

* Pasport muddati o'tgan chet elliklar, chet elliklarni ro'yxatga olish raqamni (**ID karta**) muddati o'rtgan shaxslar, Koreyadagi elchixona tomonidan berilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari kerak

- Ish beruvchi tomonidan yollangan chet ellik ishchilarining shaxsiy ma'lumotlari(Ismi, tug'ilgan sanasi, jinsi, millati, yashash joyi/ish manzili va boshqalar)xaqida ma'lumot berilsa bron qilish uchun vaqtinchalik raqam beriladi

- Vaqtinchalik raqam berilganidan so'ng siz onlayn yoki telefon orqali bron qilishingiz mumkun (vakilingiz buyurtma berishi mumkun)

* Koreyaga sayohat maqsadida tashrif buyurganlar, 90 kun yoki undan kamroq, qisqa muddatli tashrif bilan kelgan fuqarolar COVID-19 ga qarshi emlashdan mustasno

Ehtiyoj choralar

◦ **Shaxsiy ma'lumotlarni faqat emlash uchun ishlataladi. Noqonuniy istiqomat qiluvchilar to'g'risida ma'lumotlarni immigratsiya idorasiga xabar berilmaydi.**

◦ Tibbiy sug'urtasi bo'limgan shaxslar, faqat sog'liqni saqlash markazlarida yoki emlash markazlarida emlanishlari mumkin

* Kasalxona va poliklinikalar kabi tibbiy muassasalarda emlash mumkin emas

< Ushbu tarjima Danuri Call 1577-1366 markazi tomonidan amalga oshirilgan >